

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHCHANOV XUSHNUDBEK ODILBEKOVICH**

**IPAK SANOATI TOLALI CHIQINDILARI ASOSIDA SORBENT  
OLISHNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Eshchanov Xushnudbek Odilbekovich**

Irak sanoati tolali chiqindilari asosida sorbent olishning ilmiy va amaliy asoslari ..... 3

**Эшчанов Хушнудбек Одилбекович**

Научно и практический основы получения сорбента на основе волокнистых отходов шелковой промышленности..... 21

**Eshchanov Khushnudbek Odilbekovich**

The scientific and practical basis of obtaining sorbent based on fiber waste of the silk industry ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published..... 44

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHCHANOV XUSHNUDBEK ODILBEKOVICH**

**IPAK SANOATI TOLALI CHIQINDILARI ASOSIDA SORBENT  
OLISHNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/K394 raqam bilan ro‘yhatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan..

**Ilmiy rahbar:**

**Baltayeva Muxabbat Matnazarovna**

kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Akbarov Hamdam Ikromovich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Voxidova Noyira Raximovna**

kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Bioorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSs.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7<sup>b</sup> uy. Tel.:(+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-60, e-mail: [polymer@academy.uz](mailto:polymer@academy.uz)

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7<sup>b</sup> uy. Tel.:(+99871)241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi.)

**S.Sh. Rashidova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor, akademik

**M.M. Usmanova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.n., katta ilmiy xodim

**A.A. Ataxanov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ipak olish va undan to'qimachilik sanoati uchun zarur mahsulotlar tayyorlash asosiy tarmoqlardan biri hisoblanib, bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Ipak ishlab chiqarishda to'qimachilik sanoati uchun 30 % gacha miqdorda yaroqsiz bo'lgan ipakning tolali chiqindilari hosil bo'ladi va bu chiqindilar kimyoviy tarkibi bo'yicha ipak tolalar bilan bir xil bo'lib, ulardan maqsadli foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda ipak tolasi asosida tibbiyot, farmatsevtika va kosmetika sohalari uchun turli materiallar tayyorlash va ipakning tolali chiqindilaridan texnik maqsadlarda foydalanishda turli sorbent namunalarini yaratish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ipak sanoatining tolali chiqindilaridan yuqori sorbsion xossali va texnik maqsadlar uchun qo'llaniladigan sorbentlarni energiya tejamkor usullarda olish, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini tadqiq qilish kabi yo'nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda ushbu sohada bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu tadqiqotlar natijasida tabiiy ipak fibroinidan tibbiy maqsadlar uchun sorbent namunalarini yaratish amalga oshirilgan. Jumladan mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar yaratishni rivojlantirishda ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil etish hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, raqobatbardosh polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup>, 2030-yilgacha bo'lgan ilm-fanni rivojlantirish kontsepsiyasida<sup>2</sup> «...mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish...» vazifalari belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida mahalliy xomashyolar asosida tabiiy polimer asosli, ekoxavfsiz sorbentlarini yaratish va ularni qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-sonli «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmoni, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Farmoni.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlarida tabiiy ipakning tolali chiqindilaridan sorbentlar olish va ularni xossalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yuqori suratda olib borilmoqda. Chop qilingan ilmiy nashrlarning ko‘pchiligida ipak fibroin tolalari asosida tayyorlangan yuqori g‘ovakli plyonkalar shaklidagi, shuningdek tolasimon va kukunsimon sorbentlar olish va ularning xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Huang Y., Farooq M., Kundu P., Hazarika S., Feng X., Ohtomo K., Mizuno Sh, Sato T., Abe S., Ito Sh., Abe T., Agapov I., Safonova L., Bobrova M., Shimizu F., Sakaguchi I. Takahashi Y., Yanukovich V., Semenov N., Karpov A., Kolinko S., Voronov V., Xiao Sh., Wang Z., Ma H., Cao S., Ling Sh., Kaplan D., Qin Z., Lee M., Chen W., Parushuram N., Ranjana R., Nitayaphat W., Jintakosol T. Arami M., Mahmoodi N. kabi jahonga taniqli olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, bu yo‘nalishni rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan.

Respublikamizda mazkur yo‘nalishga akademik Rashidova S.Sh., professorlar Sarimsakov A.A., Yunusov L., Xolmuminov A.A., Alimova X.A., Nabiyeva I.A., Pak T.S., Taxtaganova D.B., Kamilova S.D., Xamrayev A.L., dots. Baltayeva M.M., k.f.f.d., (PhD) Yarmatov S.S. va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqot ishlari bilan ipak fibroinining tarkibi, tuzilishi, xossalarini tadqiq qilish va undan sorbentlar olish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishib, o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Ushbu tadqiqotlarga qadar adabiyotlarda ipak sanoatining tolali chiqindilaridan kislotali sharoitda o‘ta yuqori chastotali nurlar ta’sirida kukunsimon gidrolizlangan fibroin olish va uning tuzilishi, tarkibi, qimmatbaho metall ionlarini sorbsiyalash xossalari, o‘simlik moylarini tozalash xususiyatlari, spekrofotometriya usulida molekulyar massani aniqlash yetarlicha o‘rganilmagan. Bu yo‘nalishda ilmiy va amaliy tadqiqotlarni olib borish, ipak sanoatining tolali chiqindilaridan yuqori sorbsion xossali kukunsimon shakldagi sorbentlar yaratish istiqbollari yuzaga keltiradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universitetining AM-Φ3-2017102347 “Gidrolizlangan fibroin asosida nanometall ushlagan bakteritsid materiallar olish usulini o‘rganish va o‘zlashtirish” (2017-2019 yy) mavzusidagi “Yosh olimlarning akademik harakatchanligi” loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ipakning tolali chiqindilaridan o‘ta yuqori chastotali nurlar ta’sirida gidrolizlangan fibroin sorbentini olish va uning tarkibi, tuzilishi va xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘ta yuqori chastotali nurlar ta’sirida ipakning tolali chiqindilaridan olingan ipak fibroin tolasini kislotali sharoitda gidrolizini tadqiq qilish;

o‘ta yuqori chastotali nurlar ta’sirida olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroinni tarkibi, tuzilishi va xossalarini aniqlash;

gidrolizlangan fibroinning kumush(I), oltin(III), mis(II) va temir(III) ionlarini sorbsiyalash xossalarini tadqiq qilish;

metall ionlarini sorbsiyalagan gidrolizlangan fibroin namunalarini fizik-kimyoviy usullar va kvant kimyoviy hisoblashlar asosida tahlil qilish;

gidrolizlangan fibroin sorbenti namunalarini paxta moyini oqlashda qo'llashdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** – ipakning tolali chiqindilari, kukunsimon gidrolizlangan fibroin, gidrolizlangan fibroin tarkibidagi kumush va oltin nanozarrachalari, gidrolizlangan fibroinning mis(II) kompleksi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** ipakning tolali chiqindilaridan o'ta yuqori chastotali nurlar ta'sirida kukunsimon gidrolizlangan fibroin olish, kukunsimon gidrolizlangan fibroinni tarkibi, tuzilishi, sorbsion xossalarini o'rganish, gidrolizlangan fibroinni paxta moyini oqlash xususiyatlarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda UB-, ATR-IQ Furiye spektroskopiya, rentgenofazaviy tahlil, differensial skanerlovchi kalorimetriya, skaner elektron mikroskopiya, optik mikroskopiya, osmometriya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi va kvant kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor ipakning tolali chiqindilarini o'ta yuqori chastotali nurlar ta'sirida kislotali sharoitda gidroliz qilish orqali gidrolizlangan fibroin olingan va optimal sharoit ko'rsatilgan;

ilk bor ipakning tolali chiqindilaridan olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroinni molekulyar massalari spektrofotometriya usuli yordamida aniqlangan;

gidrolizlangan fibroinda kumush, oltin nanozarrachalari va mis(II) komplekslarini hosil bo'lishi, metall ionlarining sorbsiya mexanizmlari aniqlangan;

kukunsimon gidrolizlangan fibroinning paxta moyini oqlash xossalari ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Mahalliy xomashyo chiqindilaridan, xususan, ipak sanoati tolali chiqindilaridan o'ta yuqori chastotali nurlar ta'sirida yuqori sorbsion xossali kukunsimon gidrolizlangan fibroin olishning optimal sharoiti aniqlangan;

Kumush, oltin ionlarini yuqori sorbsion sig'im bilan sorbsiyalash va yog'-moy sanoatida ishlab chiqariladigan paxta moyini oqlash uchun ipakning tolali chiqindilaridan kukunsimon gidrolizlangan fibroin namunalari olingan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari zamonaviy rentgenofazaviy tahlil, ATR-IQ Furiye- va UB-spektroskopiya, differensial skanerlovchi kalorimetriya, skaner elektron mikroskopiya, optik mikroskopiya, osmometriya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi va kvant kimyoviy hisoblash usullari ma'lumotlari asosida tasdiqlangan, shuningdek, tadqiqot natijalari bir qator xalqaro va respublika doirasidagi jurnallarda chop qilinib, ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kislotali sharoitda o'ta yuqori chastotali nurlar ta'sirida kukunsimon gidrolizlangan fibroin olishda ipak fibroin tolasini gidrolizlash, usul uchun optimal sharoitni aniqlashdan iborat. Shuningdek ipakning tolali chiqindilaridan olingan

gidrolizlangan fibroinning molekulyar massasini spektrofotometriya usuli yordamida aniqlash, kumush, oltin va mis(II) ionlarini sorbsiyalash xossalari ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ipakning tolali chiqindilaridan o'ta yuqori chastotali nurlar ta'sirida olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroin asosida paxta moyini oqlashda import o'rnini bosuvchi sorbentlar olishdan iborat. Olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroinni yog'-moy sanoatida ishlab chiqariladigan paxta moyini oqlash xossalari aniqlangan. Ipakning tolali chiqindilaridan olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroinni moylarni oqlash xossasi import qilib keltiriluvchi bentonit tuproqlardan sorbsion faolligi yuqoriligi ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ipak sanoati tolali chiqindilari asosida sorbent olishning ilmiy va amaliy asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Ipakning tolali chiqindilari asosida sorbent olish bo'yicha olingan ilmiy natijalardan "A-12-53-Atrof-muhit obyektlarida ekotoksikantlarni aniqlashning fotometrik va sorbsion-fotometrik usullarini ishlab chiqishda polimer tashuvchilarda immobilizatsiyalangan reagentlar" (2015-2017 yy) mavzusidagi fundamental loyihasida eritmalardagi metall ionlarini sorbsiyalashda foydalanilgan (O'zR OO'MTV O'zMU ning 2022-yil 19-martidagi 04111-1617-sonli ma'lumotnomasi). Natijada og'ir metall ionlarini sorbsiyalash xossasi yuqoriligi aniqlangan va loyihani muvaffaqiyatli bajarilishiga hissa qo'shgan.

Ipakning tolali chiqindilaridan olingan gidrolizlangan fibroin namunalariidan Urganch yog'-moy" AJ da paxta moyini tozalashda (oqlashda) amaliyotga joriy qilingan ("Urganch yog'-moy" AJ ning 2022-yil 20-iyuldagi dalolatnomasi). Natijada import qilib keltiriluvchi bentonit sorbentiga nisbatan yuqori samaradorlikni ko'rsatib, paxta moyini sifat ko'rsatgichlari va moyning saqlanish muddatini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy – amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop qilingan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, jumladan 7 ta maqola - xorijiy va 4 ta maqola Respublika jurallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ishning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ko'rsatilgan, tadqiqotning obyekt va predmetlari belgilangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ko'rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan,

tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy ipak fibroinining tarkibi, olinishi, fizik-kimyoviy xossalari va qo'llanilish imoniyatlari (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida tabiiy ipakning tolali chiqindilarining hosil bo'lishi va uning tarkibi, tuzilishi, ipak fibroinining fizik va kimyoviy xossalari, molekulyar massalarini aniqlash, ipak fibroinini ajratish, ipak fibroinidan sorbentlar olish usullari, o'simlik moylarini sorbentlar bilan oqlash imkoniyatlariga bag'ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Metodik va tajriba qism”** deb nomlangan ikkinchi bobida ipakning tolali chiqindilaridan ipak fibroin (IF) tolasini ajratib olish, IF tolasidan kislotali sharoitda an'anaviy termik va o'ta yuqori chastotali (O'YCh) nurlar ta'sirida kukunsimon gidrolizlangan fibroin (GF) olish usullari, kukunsimon GF ning bo'kishi va termik xossalari aniqlash usullari, IF tolasini va kukunsimon GF namunalari molekulalarini aniqlash usullari, GF ning paxta moyini oqlash, metall ionlarini sorbsiyalash ko'rsatgichlarini aniqlash va fizik-kimyoviy tadqiq qilish usullari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Ipakning tolali chiqindilaridan olingan kukunsimon gidrolizlangan fibroin namunalari tuzilishi, tarkibi, fizik-kimyoviy tahlili va sorbentlik xossalari”** deb nomlangan uchinchi bobida ipakning tolali chiqindilaridan kislotali sharoitda an'anaviy termik va O'YCh nurlar ta'sirida kukunsimon GF olish, kukunsimon GF ning bo'kishi va termik xossalari, IF tolasini va kukunsimon GF namunalari molekulalarini aniqlash usullari, GF ning paxta moyini oqlash, metall ionlarini sorbsiyalash ko'rsatgichlari va olingan namunalarning fizik-kimyoviy tahlil natijalariga tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

An'anaviy termik usul yordamida ipakning tolali chiqindilaridan kukunsimon GF olish uchun IF tolasini HCl eritmasida gidroliz qilindi. Ushbu usulning optimal sharoitini tanlash uchun IF tolasini 80÷100°C haroratlarda, gidroliz jarayoni vaqti 55÷840 daqiqalar va gidrolizlovchi eritmaning konsentratsiyasi 2÷5 % oralig'ida jarayon o'tkazildi. IF tolasining kukunsimon holatga o'tishiga gidroliz jarayonining haroratini, gidrolizlovchi eritmaning konsentratsiyasi va jarayon davomiyligini bog'liqligi, mahsulot unumlarining qiymatlarini e'tiborga olgan holda jarayon uchun optimal sharoit tanlash amalga oshirildi (1-jadval). Olingan natijalar asosida an'anaviy termik usulda ipakning tolali chiqindilaridan olingan IF tolasini gidrolizi uchun optimal sharoit sifatida HCl konsentratsiyasi – 3 %, harorat- 90°C, 80 daqiqa vaqt tanlangan. Bunda GF ning hosil bo'lish unumi 81 % ga teng bo'lgan. Ushbu sharoitda olingan GF namunalari shartli ravishda GF1 deb belgilangan.

Ipakning tolali chiqindilaridan olingan IF tolasini gidroliziga O'YCh nurlar ta'sirini o'rganish maqsadida jarayonni HCl ning 3 % li eritmasida nurlanish manbaining 850, 680, 510 va 340 W quvvatlarida olib borilgan.

1-rasmda O'YCh nurlarning GF ning hosil bo'lish unumi va gidroliz vaqtiga ta'siri ko'rsatilgan. Olingan natijalar asosida O'YCh nurlar ta'sirida ipakning tolali chiqindilaridan kukunsimon GF olish uchun optimal sharoit sifatida nur quvvati 510 W, gidroliz vaqti – 16 daqiqa tanlab olingan. Bunda GF ning hosil bo'lish unumi 72

% ni tashkil qildi. Ushbu sharoitda olingan GF namunalari shartli ravishda GF2 deb belgilandi.

1-jadval.


IF tolasining kukunsimon holatga o'tish chegarasini jarayon sharoitlariga bog'liqligi

t° C%	80°C		85°C		90°C		95°C		100°C	
	t, daq.	Unum	t, daq.	Unum	t, daq.	Unum	t, daq.	Unum	t, daq.	Unum
2	840	94%	720	91%	120	88%	116	85%	100	77%
3	160	89%	130	86%	<b>80</b>	<b>81%</b>	77	78%	70	71%
4	110	85%	98	82%	75	78%	69	74%	65	67%
5	98	78%	87	72%	68	65%	60	60%	55	52%

IF tolasidan olingan kukunsimon GF ning zarrachalari o'lchamlarini o'rganish optik mikroskopiya usuli bilan amalga oshirilgan. Optimal sharoitda olingan GF1 va GF2 namunalarning sifat ko'rsatgichlari solishtirildi va GF olish usullarining avzalliklari taqqoslandi.

IF tolasidan GF olish an'anaviy termik usulda olib borilganda, jarayon 80 daqiqada yakunlangan bo'lsa, O'YCh nurlar ta'sirida 16 daqiqada tugagan. O'YCh nurlar ta'sirida kukunsimon GF olish jarayoni an'anaviy termik usulga nisbatan 5 marta tezroq kechishini ko'rsatdi. O'YCh nurlar ta'sirida olingan GF2 zarrachalarning o'rtacha o'lchami 81 mkm, an'anaviy termik usulda olingan GF1 zarrachalarning o'rtacha o'lchami esa 65 mkm ga teng. GF1 olish jarayonida termik ta'sir sirdan sistemaning ichki qismiga kirib boradi va shuning uchun makromolekulalarni termo-gidrolitik parchalanishiga ko'p vaqt sarflanadi, buning evaziga IF tolada ko'plab uziluvchi markazlar shakllanishiga olib keladi. Shu sababli GF1 zarrachalari o'lchamlari kichik bo'ladi. GF2 olish jarayonida O'YCh nurlar butun hajmi birdaniga qizdiradi va shuning uchun makromolekulalarni O'YCh-gidrolitik parchalanishiga kam vaqt sarflanib, IF tolada uziluvchi markazlar kamroq shakllanib, nisbatan kattaroq o'lchamli GF2 zarrachalari hosil bo'lgan. Olingan GF namunalarning shakli va strukturaviy o'zgarishlari fizik tadqiqot usullari yordamida tahlil qilingan.


Olingan GF namunalari optik mikroskopiya, ATR-IQ Furiye spektroskopiya, UB-spektrofotometriya, rentgenofazaviy tahlil, metall ionlari sorbsiyasi kabi fizik va fizik-kimyoviy usullari bilan tadqiq qilindi.



1-rasm. Hidroliz jarayonida O'YCh nurlar quvvati, vaqt va unumning bog'liqlik diagrammasi (C%(HCl)=3 %).

Optik mikroskopiya tahlillarida GF2 zarrachalari yuza qismlarida ko'plab g'ovakliklar va yoriqlar kuzatildi. GF2 olish jarayonida O'YCh nur ta'sirida eritmadagi va IF tolasidagi suv va vodorod ionlari kuchli tebranma harakatga kelib, molekulalarning kinetik energiyasi ortib, tola ichidagi sistemada issiqlik hosil bo'ladi. Issiqlikni tezda yuqori qiymatga yetishi va molekulalarning (qutbli va zaryadlangan qismlari) jadal harakati sababli gidroliz jarayoni tezlashadi. O'YCh nurlar ta'sirida IF tola ichidagi haroratni tezda yuqori qiymatga ko'tarilishi sababli suv molekulalari tolani yorib chiqadi va fibroin zarrachalarida ko'plab yoriqlar hosil bo'lishiga olib keladi.

IF tolasini va GF namunalari amorf va kristall qismlar mavjud. Olingan namunalarning amorf va kristall strukturalarini o'rganish uchun rentgenofazaviy tahlillar amalga oshirilgan (2-rasm).



**2-rasm.** IF tolasini, GF1 va GF2 namunalari diffraktogrammalari.

GF1 namunasining diffraktogrammasida  $2\theta=12^\circ$  cho'qqini IF tolasinikiga nisbatan keskin kamayishi kuzatildi.  $2\theta=19,8^\circ$  dagi cho'qqini intensivligi ham kamaygan. IF tolasiga nisbatan  $2\theta=24,43^\circ$  va  $2\theta=43,97^\circ$  dagi cho'qqilarni siljishi va cho'qqi intensivliklari ortishi kuzatilgan. Bu o'zgarishlar GF1 olish jarayonida IF tarkibidagi amorf qismlar ( $\alpha$ - va tartibsiz zanjirlar) kamayganligini ifodalaydi.

GF2 ning diffraktogrammasida  $2\theta=12^\circ$  va  $19,8^\circ$  larga mos cho'qqilarning intensivliklari keskin kamayishi kuzatildi. IF tolasiga nisbatan  $2\theta=24,47^\circ$  dagi cho'qqini siljishi,  $2\theta=43,97^\circ$ ,  $2\theta=64,32^\circ$  va  $74,43^\circ$  dagi cho'qqilarni intensivliklarini ortishi aniqlandi. Aniqlangan natijalarga asoslanib GF2 olish jarayonida ham IF

tolasining amorf qismlari gidrolizga uchrab kamaygan va kristall qismlar oshgan deb xulosa qilindi.

Namunalarning diffraktogrammalarini tahlil qilish natijasida kristallik darajalari IF tolasida (chiqindi) 21,75% ni, GF1 namunasida 33,78% ni, GF2 namunasida esa 34,25% ni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi. Diffraktogrammalarni mahsus Match!3 dasturida tahlil qilish orqali kristall qismni tashkil qiluvchi birlik kristall panjaraning o'lchamlari aniqlandi (2-jadval).

**2-jadval.**

IF tolasidagi fibroinning va kukunsimon GF namunalarning kristall panjara ko'rsatgichlari

№	IF tolasidagi fibroinning kristall panjara ko'rsatgichlari	GF1 namunalari kristall panjara ko'rsatgichlari	GF2 namunalari kristall panjara ko'rsatgichlari
1	$a=10,88 \text{ \AA}$ ,	$a=11,95 \text{ \AA}$	$a=10,34 \text{ \AA}$
2	$b=7,62 \text{ \AA}$ ,	$b=7,46 \text{ \AA}$	$b=6,86 \text{ \AA}$
3	$c=7,795 \text{ \AA}$ ,	$c=8,72 \text{ \AA}$	$c=6,32 \text{ \AA}$
4	$\alpha=90^\circ$	$\alpha=90^\circ$	$\alpha=90^\circ$
5	$\beta=90^\circ$	$\beta=90^\circ$	$\beta=90^\circ$
6	$\gamma=105^\circ$	$\gamma=117,45^\circ$	$\gamma=100,67^\circ$

GF1 va GF2 namunalarning kristall panjara ko'rsatgichlari IF tolasidagi fibroinning ko'rsatkichlari bilan solishtirilganida, GF1 kristall panjarasining  $a$  va  $c$  tomon uzunliklarini ortishi kuzatildi. Kristallanish darajasi 21,75 % dan 33,78 % ga oshgan. Bunda IF

tolasini kislotali muhitda qizdirilganda amorf qismlarda gidrolitik uzulishlar bilan birga kristallanish jarayoni ham borgan.

GF2 da kristall panjaraning barcha tomon uzunliklarini nisbatan kamayishi kuzatildi. Kristallik darajasi 21,75 % dan 34,25 % gacha oshgan. IF tolasini kislotali muhitda O'YCh nurlar ta'sirida qizdirganda amorf qismlar bilan birga kristall qismlar ham qisman gidrolizga uchrangani va gidrolitik uzulishlar davomida kristallanish jarayoni ham borishi bilan izohlandi. Kristall qismlardagi ionlashgan ( $\text{NH}_3^+$ ,  $-\text{COO}^-$ ) qismlar O'YCh nurlar ta'sirida kuchli qizishi tufayli gidrolizlanadi. O'YCh nurlar ionlangan qismlarga ta'sir qilib, ularni tebranma harakat qilishga majbur qiladi. Oqibatda kuchli qizish sodir bo'ladi va gidroliz jarayonini tezlashadi.

Olingan GF namunalarning ATR-IQ Furiye spektrlari olindi va tahlil qilindi. GF namunalarning ATR-IQ Furiye spektrlarida  $3562,8 \div 3736,4 \text{ sm}^{-1}$  sohalardagi yutilish intensivligini pasayishi erkin  $-\text{OH}$  guruhlar kamayganligini bildiradi. Erkin  $-\text{OH}$  guruhlarini kamayishi vodorod bog'lanishlarning ortishi bilan bog'liq.  $997 \text{ sm}^{-1}$  sohadagi yutilish intensivligi  $975,96 \text{ sm}^{-1}$  ga nisbatan kamayishi GF1 olish jarayonida IF da  $-\text{Gly-Gly-}$  aminokislota qoldiqlarida uzilishlar ko'p uchranganligini anglatadi.  $1699,9 \text{ sm}^{-1}$  sohadagi yutilish intensivligini ortishi  $-\text{COOH}$  (karboksil) guruhlari oshganligini ifodalaydi.  $1230 \text{ sm}^{-1}$  sohadagi yutilish intensivligini  $1260 \text{ sm}^{-1}$  sohaga nisbatan kamayishi gidrolizda fibroin tarkibidagi tartibsiz va  $\alpha$ -struktura zanjirlari kamayib, kristallikni keltirib chiqaruvchi  $\beta$ -strukturalar oshishi bilan bog'liq.

GF2 namunasining ATR-IQ Furiye spektrida  $2932,23 \text{ sm}^{-1}$  sohadagi yutilishni  $2934,16 \text{ sm}^{-1}$  sohaga siljib, intensivligi kamayishi metil guruhli qismlar o'zgarishga uchranganligini anglatadi.  $1698,02 \text{ sm}^{-1}$  sohadagi yutilish intensivligini oshishi  $-\text{COOH}$  (karboksil) guruhlar sonini ortganini va antiparallel  $\beta$ -strukturalarni

ifodalaydi.  $1230 \text{ sm}^{-1}$  sohani yutilish intensivligini  $1260 \text{ sm}^{-1}$  sohaga nisbatan kamayishi gidroliz jarayonida fibroin tarkibidagi tartibsiz va  $\alpha$ -struktura zanjirlari miqdori kamayib,  $\beta$ -strukturalar oshganini bildiradi.

IF tolasi va GF namunalarining aminokislota tarkibini aniqlash maqsadida namunalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usulida tahlil qilindi. Ipakning tolali chiqindilaridan olingan IF tola va GF namunalari tarkibidagi aminokislotalarning miqdorlari farq qilishi kuzatildi. IF tolasidan GF namunalarini olish jarayonida namunalarda *Cys, Thr, Arg, Tyr, Val, Met, Ile, Leu, Phe* va *Lys* aminokislotalar miqdori keskin kamaygan. Bu o'zgarishlar gidroliz jarayoni asosan IF ning amorf qismlarida borganini tasdiqlaydi (3-jadval).

O'YCh nurlar ta'sirida GF2 olish jarayonida zaryadlangan va qutbli aminokislota qoldiqlari mavjud qismlar jadal gidrolizlangan. Kristall qismlarning zaryadli va qutblangan aminokislota qoldiqlari miqdori GF2 namunasida GF1 ga nisbatan kamaygan. Bu kristall qismlarning zaryadlangan va qutblangan qismlari hisobiga O'YCh nurlar ta'sirida qisman gidrolizga uchrashini isbotlaydi.

IF ning gidrolizga uchraganligini tasdiqlash va molekulyar massalarini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Molekulyar massalarni aniqlash uchun osmometriya va spektrofotometriya usullari qo'llanildi.

IF tolasi va GF namunalaridagi fibroinning molekulyar massalari qiymatlari farq qildi. Bu

**3-jadval.**  
IF tolasi, GF1 va GF2 namunalarining tarkibiga kiruvchi aminokislotalarning miqdorlari

Aminokislotalar	IF tola	GF1	GF2
	Aminokislotalar miqdori $\omega$ ,%		
Asparagin kislota(-) - <i>Asp</i>	1,0628	1,494	1,144
Glutamin kislota(-) - <i>Glu</i>	0,8426	1,214	0,930
Serin - <i>Ser</i>	12,151	15,820	15,133
Glitsin- <i>Gly</i>	32,149	30,738	33,920
Sistein - <i>Cys</i>	1,700	1,072	1,401
Treonin - <i>Thr</i>	4,9034	3,428	1,4025
Argenin (+) - <i>Arg</i>	2,2453	0,340	1,017
Alanin - <i>Ala</i>	13,793	19,836	21,274
Prolin- <i>Pro</i>	1,1548	1,680	1,106
Tirozin - <i>Tyr</i>	5,7014	1,302	1,054
Valin - <i>Val</i>	10,111	9,025	8,712
Metionin - <i>Met</i>	4,2438	3,359	3,024
Gistidin - <i>His</i>	3,5100	8,106	7,893
Izoleytsin - <i>Ile</i>	1,4658	0,819	0,593
Leytsin - <i>Leu</i>	1,4032	0,836	0,591
Fenilalanin - <i>Phe</i>	2,7124	0,706	0,514
Lizin HCl (+)- <i>Lys</i>	0,8456	0,218	0,286

 Oshgan miqdor

 Kamaygan miqdor

olingan GF namunalaridagi makromolekulalarni

**4-jadval.**  
Turli usullar yordamida olingan fibroin namunalarining molekulyar massalari

No	Namuna	Osmometriya usulida	Spektrofotometriya usulida
1	IF tolasi	324600±30 Da	411700±20 Da
2	GF1	244200±20 Da	246600±10 Da
3	GF2	292950±50 Da	307400±50 Da

natijalar IF makromolekulalarining gidrolizga uchrab molekulyar massasi kamayganini anglatadi.


Spektrofotometriya va osmometriya usullari yordamida aniqlangan GF namunalarining molekulyar massalari orasidagi farq kam qiymatlarni tashkil qilib, bu GF tarkibidagi makromolekulalar molekulyar massa bo'yicha monodispers ekanligi bildiradi.

Ipakning tolali chiqididan olingan IF tola va kukunsimon GF1, GF2 larning harorat ta'siridagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash maqsadida termik tahlil amalga oshirilib, differensial skanerlash kalorimetriya usulidan foydalanildi. Termik tahlil natijalari orqali GF namunalarining tarkibiy o'zgarishi, qo'llash haroratlari va imkoniyatlariga baho berildi. Differensial skanerlash kalorimetriya tahlil natijalariga asosan, 242°C haroratda GF namunalari tarkibidagi makromolekulalarning  $\alpha$ - va tartibsiz zanjirlari tashkil qiluvchi amorf qismlarning kristall qismlarga aylanishi kuzatildi.

GF namunasi 210°C haroratgacha strukturaviy termik barqarorlikka ega bo'lib, 210°C haroratgacha bo'lgan sharoitlarda qo'llash mumkin. 211,6°C haroratda GF2 tarkibidagi karboksil va amino guruhlar ishtirokida kondensatsiya reaksiyasi kuzatiladi.

Olingan namunalarning sorbentlik xususiyatlarini baholash maqsadida bo'kish darajalari va kinetikasi o'rganildi. Izlanishlar umumiy va absolyut hajmiy bo'kish darajalarini aniqlash orqali olib borildi. Kukunsimon GF ning umumiy hajmiy bo'kish darajalarini 20°C haroratda 192 soat davomida neytral, kislotali va ishqoriy muhitlarda aniqlandi. Bunda neytral muhit – suv, kislotali muhit – 3% li xlorid kislota eritmasi va ishqoriy muhit- 3% li kaliy gidroksid eritmasidan foydalanilgan.

GF2 namunalarining maksimal umumiy hajmiy bo'kish ( $\alpha_{v,maks}$ ) - neytral muhitda- 15%, kislotali muhitda- 23% va ishqoriy muhitlar- 70% ni tashkil qildi. Ishqoriy muhitda bo'kishning yuqori darajada bo'lishi GF ning strukturaviy o'zgarishlari tufayli kristall qismlar kamayib, amorf qismlar oshishi bilan bog'liq. GF1 ning ishqoriy, kislotali va neytral muhitda maksimal bo'kish darajalari ( $\alpha_{v,maks}$ ) mos ravishda 62, 21 va 13 % ni tashkil qilishi aniqlandi. Bu maksimal bo'kish ko'rsatgichlari GF2 ning ko'rsatgichlariga karaganda kam. Bo'kish darajalari ko'rsatgichlari namunaning



**3-rasm.** Neytral (a), ishqoriy (b) va kislotali (c) eritmalarda GF zarrachalarining bo'kish jarayoni uchun  $t/\alpha$  va  $t$  ning bog'liqlik grafiqi.

14

sorbtsion xossalariga baho berishda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli keyingi tadqiqotlar GF2 bilan olib borildi.

GF2 namunalarining neytral, kislotali va ishqoriy muhitlardagi bo'kish kinetikasining konstanta qiymatlarini aniqlash uchun ikkinchi tartibli kinetik tenglamadan foydalanildi. Tenglama asosida turli muhitlarda GF2 ning umumiy hajmiy bo'kish jarayonlari uchun  $t/\alpha$  va  $t$  ning bog'liqlik grafiklari ( $t$ -vaqt,  $\alpha$ -umumiy hajmiy bo'kish darajasi) tuzilib, bo'kish kinetikasining konstanta qiymatlari neytral muhitda 0,0664, kislotali muhitda 0,0434, ishqoriy muhitda 0,0144 ga tengligi aniqlandi. Bu ishqoriy muhitli eritmada GF ning bo'kish tezligi kislotali va neytral muhitli eritmalaridagiga nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida GF2 namunalarining absolyut hajmiy bo'kishi aniqlandi. Namunalarining absolyut hajmiy bo'kishi aniqlashda optik mikroskop yordamida zarrachaning bo'kishidagi diametri ( $d$ ) va uzunligi ( $l$ ) o'lchab borildi.

GF zarrachalarining maksimal absolyut hajmiy bo'kishi ( $\alpha_{v,maks}$ ) neytral muhitda- 110 %, kislotali muhitda- 169,5 % va ishqoriy muhitlar- 335 % ni tashkil qildi. GF2 namunalarining absolyut bo'kish ko'rsatkichlari umumiy hajmiy bo'kish ko'rsatkichlaridan katta farq qilishi kuzatildi. Bu GF zarrachalarining umumiy bo'kishida zarrachalar orasida bo'shliqlar mavjudligi, bo'kishda zarrachalar ushbu bo'shliqlarni to'ldirishi, hajmning ortishi tufayli bo'kish o'lchanyotgan idish devoriga zarrachalarni ishqalanish ta'siri natijalarida umumiy hajmning oshishini aniqlashdagi xatoliklar bilan tushuntirildi. Absolyut hajmiy bo'kishda zarrachalarga tashqi ta'sirlar kuzatilmaydi va haqiqiy bo'kish ko'rsatkichlari aniqlanadi (5-jadval).

Neytral, kislotali va ishqoriy muhitlarda GF zarrachasining bo'kish kinetikasi aniqlangan. Kislotali va ishqoriy eritmalarda GF zarrachasining bo'kish kinetikasini ifodalovchi grafiklarda siniq to'g'ri chiziqlar hosil bo'ldi, ammo neytral muhitda bo'kish kinetikasida faqat bitta to'g'ri chiziqqa ega bo'lishi kuzatildi (3-rasm). Bu neytral muhitda bo'kish jarayonida faqat suv molekullari ishtirok qilishi bilan izohlandi. Kislotali va ishqoriy muhitlarda bo'kish ko'rsatkichlarini o'zgarishini GF dagi makromolekulalar orasiga suv molekullari bilan  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari ham kirishi va fibroin makromolekulasi konformatsion o'zgarishlari bilan bog'liq.

**5-jadval.**

GF zarrasining bo'kish kinetik konstantasi qiymatlari

Muhit	Grafik chiziqlariga mos keladigan vaqtlar	Kinetik konstanta qiymatlari
Neytral muhitda	391 daqiqagacha	0,0087
Ishqoriy muhitda	631 daqiqagacha	0,0043
	631 daqiqadan keyin	0,0013
Kislotali muhitda	331 daqiqagacha	0,0123
	331 daqiqadan 541 daqiqagacha	-0,0038
	541 daqiqadan keyin	0,0059

GF tarkibida faol markazlar sonini oshirish va unga muhit ta'sirini o'rganish maqsadida kislotali, ishqoriy, neytral (suv) muhitli eritmalarda bo'ktirilgan GF ning namunalariga 510 W quvvatli O'YCh nurlar 5 daqiqa davomida ta'sir qildirildi va GF3, GF4, GF5 namunalari olindi.

Olingan GF3, GF4, GF5 namunalari ATR-IQ Furiye spektroskopiyasi yordamida tahlil qilish orqali GF4 namunasida amorf qismlar oshishini, GF3 namunasida kristall qismlar oshishi kuzatildi.

IF tolasidan olingan GF namunalarining aniqlangan sirt yuza ko'rsatgichlari 6-jadvalda keltirilgan.

Kukunsimon GF namunalarining g'ovaklik radiuslari  $3,28 \div 3,75$  nm ga tengligi aniqlandi. Namunalarning solishtirma sirt yuzasi GF1 da  $84,64 \text{ m}^2/\text{g}$ , GF2 da esa  $92,52 \text{ m}^2/\text{g}$  ga teng bo'lishi, O'YCh nurlar ta'sirida GF2 yuzasida g'ovakliklar miqdori ortishi bilan tushuntirildi. GF3 namunasining sirt yuzasi  $87,83 \text{ m}^2/\text{g}$  gacha kamaygan. Bunga GF3 ni olishdagi kislotali muhitda namunalarda kristallik darajasining oshishi va o'z navbatida g'ovakliklarni yopilishi sabab bo'lgan. GF2 namunasining olinish usulining tezkorligi, sirt yuzasining kattaligi va g'ovakliklarni ko'pligi, termik xususiyatlari bilan an'anaviy termik usulda olingan GF1 ga nisbatan ustunligi kuzatildi.

**6-jadval.**

GF namunalarining sirt yuzasi ko'rsatgichlari

